Suqrotning fikricha, burch axloqiy hodisa hisoblanib, bu yaxshi fuqaro bo‘lish qobiliyatidir. Ammo bu iborani chuqurroq tushunish va idrok etish kerak. Suqrotning fikricha, “yaxshi fuqaro bo‘lish” tushunchasi qo‘shimcha falsafiy mulohazani talab qiladi, inson baxtga ershishi ezgulik asosida amalga oshadi. Suqrot burchni inson fazilati bilan bog‘liq hodisa sifatida ta’riflaydi.

Aflotun esa, burchni inson fazilatlarida namoyon bo‘ladi deb hisoblaydi. Fazilat – bu insonning o‘z xatti-harakatlarini sog‘lom fikrga mos keladigan tarzda nazorat qilish qobiliyatidir. Bu axloqiy burchni bajarishda namoyon bo‘lishini ta’kidlagan.

Axloqiy burch va uning ta’rifi Aristotelning ko’plab asarlarida o’z ifodasini topgan. Platondan farqli o’laroq, Aristotel butun insoniyat baxtga intiladi deb hisoblab, bu jarayonda barcha fazilatlar faqat unga erishish vositasi bo’lib xizmat qiladi, deb ta’kidlaydi. Faylasuf qarashlariga ko’ra, barcha istaklarni qondirishga harakat qilishning hojati yo’q, hatto ular zavq bag’ishlasa ham. Faqat farovonlik keltiradigan istaklarni fazilat deb hisoblash mumkin, shuning uchun axloqiy burch bu istaklarni to’g’ri tanlashdir. Aristotelning axloq tushunchasi haqidagi qarashlari axloq fanining rivojlanishiga ulkan hissa qo’shdi.

Konfutsiy xitoy faylasuflari orasida birinchi bo’lib, hayot qadri, axloqiy qadriyat, insoniylik va mehr-oqibat, ezgulik kabi axloqiy kategoriyalarga murojaat qilib, “toza vijdon” konsepsiyasini ilgari surib, ijtimoiy hayotning tartiboti halollik, fazilatlik, jasorat, xayrixohlik, o’zaro ishonch asosiga qurilishi, bu birgalikda yashashning oltin qonuni sifatida baholagan. Konfutsiy “burch tushunchasini 義- yi-deb izohlab”[3:247], adolatli va oqilona harakat qilish insoniylikning belgisi deya ifodalagan. Konfutsiy tomonidan ilgari surilgan axloqiy kategoriyalari — «jen», «li», «ven» bo’lib, bir vaqtning o’zida komil inson va ham «jo’mard inson»ning xususiyatlaridir deb hisoblagan. Axloqiy majburiyatlarning rasm-rusum va burch tushunchasi aynan (Li) axloqiy kategoriyasi orqali ifodalangan. Tarbiya, ta’lim va madaniyatni o’stirishda bu asosiy usulga aylandi. Tarbiya tushunchasi, Konfutsiy ta’limotida «ven» tushunchasi zahiriga singdirilgan. Tarbiya orqali insonda bir qancha fazilatlar shakllangan jumladan: kamtarinlik, adolatlik, bosiqlik, or-nomusilik, beg’arazlik, insonlarga mehr-muhabbatli bo’lish aynan “Li” va “Ven” kategoriyalari orqali shakllanishini o’z asarlarida tushuntirib bergan. Biroq inson kamoloti uchun faqat insoniylikning o’zi yetarli emas deb hisoblab, unda burch mas’uliyati kuchli bo’lishi kerak. «Ezgu inson burch haqida, pastkash inson o’z manfaatini uylar», — deb tushuntiradi Konfutsiy. Burch tushunchasiga ilm egallash, donishmandlarning pand-nasihatlariga quloq tutish ham kiradi deb hisoblagan.

Konfutsiy ijtimoiy idealini va tartibni shunday izohlaydi: «Ota otaligini, farzand farzandligini, hukmdor hukmdorligini, amaldor amaldorligini qilsin», ya’ni agar hamma o’zining huquq va burchini yaxshi tushunib, sidqidildan bajarsa, jamiyatda tartib bo’ladi. Burchni ado etish tufayli inson kamolotga erishadi. Shu tariqa ideal jamiyat shakllanadi va rivojlanadi.

Qadimgi Yunonistondagi Stoiklar maktabi vakillari insonda burch tuyg’usi mavjud bo’lib, u insonning ezgu harakatlarida namoyon bo’ladi[4] deb hisoblaganlar. Stoiklar inson hayotini, maqsadini ezgulikka intilishi deb baholab, “Burch”ni inson va dunyo o’rtasidagi munosabat mezoni sifatida izohlagan. Inson barcha fazilatlarini o’zida mujassam etgan va umumiy manfaat uchun burchga muvofiq harakat qilishi kerak deb hisoblagan. Mark Avreliy insonning faoliyatida – uning tanlovi mavjud bo’lib, shaxsning harakat qilishi, ezgu niyati bo’lishi muhimligi va xatti-harakati shunga mos bo’ladi. Albatta insonning o’ziga xos qadriyatlari tizimida burch[5:216] tushunchasi paydo bo’ladi. Sitseronning axloq falsafasi amaliy yo’nalishga ega edi, shuning uchun Rim jamoasi fuqarosining burchi degan istilohni o’z asarlarida qo’llagan.

**Tadqiqotlar metodologiyasi.** Maqolada tarixiylik, vorisiylik, mantiqiy izchillik, tizimli funksional tahlil, sotsiologik va sotsiodinamik yondashuv, sinergetik hamda dialektik ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Sitseron o’zining (De officiis) “Vazifalar to’g’risida”gi kitobida burchni insonning jamiyatdagi aloqalari va boshqa odamlar bilan munosabatlari bilan

belgilanadigan holat sifatida muhokama qiladi. Shaxsning burchi haqida fikr yuritar ekan, Sitseron davlat bojlari, mulk daxlsizligi tushunchasi, harbiy axloq, jamiyatning turli qatlamlari oldidagi burchlar (vatan va ota-ona, bolalar va oila va boshqalar) kabi sohalarga to'xtalib o'tadi. Sitseron stoiklarning "kathekon"[6:159] burchi tushunchasini barcha odamlarga tegishli bo'lgan "oddiy" burch bilan belgilaydi, bu esa turli xil o'ziga xos insoniy burchlarni axloqiy jihatdan baholashga imkon berdi.

Sitseron jasur fuqaroga yo'l-yo'riq ko'rsatishi kerak bo'lgan to'rtta fazilatni ko'rsatib o'tadi. Bular — haqiqatni bilish, adolat, saxiylik va mo'tadillik. To'rtinchi fazilatda aynan burch atamasi o'zining haqiqiy mazmuniga ega, ularni bajarish orqali inson butun hayotining axloqiy mazmunini belgilaydi deb hisoblagan. Italyan tilida burch tushunchasi "offisium" deb ataladi. O'rta asrlarda Milanlik Ambrose Sitseron asarlariga asoslanib, "offisium" (burch) so'zi nafaqat faylasuflar orasida, balki Muqaddas Yozuvlarda ham mavjudligini tasdiqlashga harakat qildi. O'zining "Mukammal" burch g'oyasini ishlab chiqib, uni mutlaqdir deb baholadi. U burchni samoviyiligiga e'tibor qaratib, burchni yaxshilik va manfaatga qaratilgan harakatlar deb talqin qila boshladi. Keyinchalik Foma Akvinskiy bu masalani diniy falsafa doirasida ishlab chiqib, "Burch"larni "gipotetik imperativ doirada"[7:424] (bayon qilinadigan buyruq) asoslab, ilohiy maqsad bilan bog'liq holda, amalga oshiriladigan jarayon sifatida tushuntirdi.

Markaziy Osiyo xalqlari haqidagi eng qadimgi yozma manba, zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avestoda" burch tushunchasi "Venidad" kitobining V va XV-bo'limlarida berilgan. Bu bo'limlarda asosan oilaviy munosabatlar tizimi ifodalangan. Zardushtiylik odob-axloqining asosi uchta tamoyilda ifodalangan: ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal birligi g'oyalarida burch axloqiy kategoriya sifatida o'zining mazmun-mohiyatiga ega bo'lgan. Insonning atrofdagi tabiat, yer, oila va ayol oldidagi burchi alohida belgilab berilgan. Hayotda o'z yo'lini tanlagan kishi o'z majburiyatlari va oilaviy burchini bajarish uchun javobgar hisoblangan. Ayniqsa, har bir erkak jamiyat va oila jamoasi oldida shaxsan mas'ul ekani alohida ta'kidlandi[8:26]. Insonning jamiyatda o'z o'rniga egaligi burchni to'laqonli bajarishi bilan belgilangan.

Falsafada burch g'oyasining rivojlanishiga eng katta hissa XVIII-asr nemis faylasufi Immanuel Kant tomonidan qo'shilgan. Kantning fikricha, harakatlar hamdardlik, do'stlik yoki ma'lum bir maqsadga erishish istagidan kelib chiqsa, ular hech qanday axloqiy qadriyatga ega emas va axloqiy emas. Faqat burch tuyg'usi — aql bilan o'rnatilgan axloqiy qonunlarga bo'ysunish burchini fazilat deb baholagan. Burchni inson hissiyotidan ustun, har doim va hech qanday shartlarsiz bajarilishi kerak bo'lgan buyruq – mutlaq qoida deb hisoblagan. Kant insonning axloqiy harakatlarini uchta omil: burch, mayl va qo'rquv bilan aniqlash mumkin deb hisoblagan. Burch — bu o'zimizga va boshqalarga, shuningdek, butun insoniyat oldidagi majburiyatlarni belgilaydigan aqldan kelib chiqadigan talab; Mayl — bu ehtiyoj, uni qondirish bizga zarar yoki foyda keltiradi. Qo'rquv — bu hodisaning oqibati anglashga yordam beradigan holat sifatida ifodalagan.

Kantdan oldin faylasuflar axloqning turli asoslarini "Burch" sifatida ifodalagan. Jumladan, his-tuyg'ular, ilohiy iroda, tabiiy qonun, baxtga intilish. Kant axloqqa yangi tushuncha aql[9:11]ni kiritib, — burchni (avtonom) tarzda anglovchi deb hisoblab, uni aqlning kuchi va tanlovi bilan bajariladigan hodisa sifatida baholadi.

Zamonaviy jamiyatda "Burch" tushunchasi shaxsning jamiyat oldidagi mas'uliyatni anglash, uning farovonligi, shaxsning harakatlariga bog'liq. Shuning uchun burch jamiyat yoki guruh tomonidan inson xatti-harakatlarini tartibga solish, uning xatti-harakati va faoliyatini



axloqiy baholash, ijtimoiylashuv mexanizmlaridan biri sifatida ishlaydi. Bundan tashqari, “burch” muayyan jamiyat a’zolari, odamlar o’rtasidagi o’zaro munosabatlarning o’ziga xos mexanizmini aks ettiradi. Shu bilan birga, “burch” jamiyat ichidagi aloqalarni, uning yaxlitligi va hayotiyligini belgilovchi muhim omillardan biridir.

Sharq va G’arb madaniyatlarida burch atamasini tushunishning o’ziga xos jihatlari mavjud. Sharda burchni tushunishning o’ziga xos xususiyati bilan bog’liq. Misol uchun, hinduizmida har bir insonning burchi uchta qoidadan iborat: o’z dxarmasiga rioya qilish (irsiy burchlar), artha (oilalar boshlig’ining vazifalari) va kama (sodiqlik va sadoqat)ni bajarish bilan bog’liq burchlardir. Bu burchlarning barchasi juda aniq va shaffofdir, ularni bajarish uchun aqliy harakat bilan emas balki vijdon amri bilan amalga oshiriladi deb hisoblanadi.

G’arbda burchni tushunish, aksincha mavhum va falsafiy xususiyatga ega. G’arb axloqi faqat burchni, shaxsning o’zi aniq mazmunni anglashini e’tirof etgan holda, muayyan hayotiy vaziyatdan kelib chiqib, uning burchi nima ekanligini hal qilishi mumkinligini ta’kidlaydi. Shunday qilib, G’arb an’analarini insonga mustaqil, fikrlaydigan, mas’uliyatli, mustaqil qaror qabul qilishga qodir shaxs sifatida qaraydi. G’arbning burch tushunchasi shaxsning intellektual va axloqiy erkinligi g’oyasiga asoslanadi.

Burch, majburiyat tushunchalarini ko’pchilik aynanlashtirishga harakat qiladi, aslida bu tushunchalar bir-biridan farqlidir. Falsafada burch ichki qabul qilingan (ixtiyoriy) axloqiy majburiyat sifatida ifodalanadi. Burch – bu bajarilmagan majburiyat. Majburiyat ham burch kabi, moddiy yoki nomoddiy xarakterga ega bo’lishi mumkin. Majburiyat – burchni shakllanishining boshlanishidir. Yuqoridagilardan ko’rinib turibdiki, burch ancha yuqori axloqiy tushunchadir. Majburiyat bajarish nuqtai nazaridan shartsiz hisoblanadi. Burch subyekti tomonidan ijtimoiy jihatdan shartlangan va bajarilishi tan olingan zaruratdir.

Majburiyat burch kabi axloqiy qonunning sanksiyasidir. Axloqiy qonun talablari majburiydir. Axloqiy talablarni bajarish zarurati inson tomonidan axloqiy majburiyat sifatida tan olinadi. O’z mazmunining tuzilishi nuqtai nazaridan, burch uchta asosiy komponentni o’z ichiga oladi. Axloqiy qonun talablarini bilish. Axloqiy qonun talablarini hurmat qilish. Axloqiy qonun talablarini bajarish uchun ichki o’zini o’zi majburlash. Ushbu uchta tarkibiy qismning asosi axloqiy qonun talablarini bajarishga majburlashdir, chunki bu burchga ichki kuch va qadriyat beradi. Burchni anglash shaxsning ma’lum bir daqiqada va vaziyatda shaxs oldida turgan aniq vazifani bajarishga yo’naltiradi. Axloqiy ongning eng muhim ko’rinishi sifatida burch insonni ezgulikni faol amalga oshirishga, axloqiy kamolotga erishishini ta’minlaydi. Yuqorida qayd etilgan tushunchalardan anglashiladiki burch va majburiyat tushunchalari o’rtasida qanday tub farq bor, degan tabiiy savol tug’iladi. Bir qarashda burch va majburiyat axloqiy ongning ikki turi sifatida shunchalik bir xildek tuyuladiki, bu tushunchalarni bir-biridan ajratib turuvchi chiziqni belgilash mushkul. Biroq, haqiqatda burch va majburiyat o’rtasida haqiqiy farq bor. Burch har doim qandaydir vazifani bajarish zarurligini ko’rsatadi.

Insonni hayvonot olamidani farqlovchi jihati bu unda mas’uliyat hissining mavjudligidadir. Mana shu mas’uliyat tuyg’usi orqali inson o’zining ma’naviy mavjudot ekanligini anglab boradi. Inson o’zining ma’naviy kamolot imkoniyatlarini yuzaga chiqarish lozimligini anglab yetgan sari o’zligini anglay boshlaydi. Har qanday insonni shaxs deb atay olish qiyin. Shaxsga ijtimoiylik xususiyatlari xos. Insonlar shaxs bo’lib dunyoga kelmaydilar, ijtimoiylik xususiyatlari nasldan naslga o’tmaydi, balki kishilar ijtimoiy muhitda, jamiyatda shaxs bo’lib shakllanadilar. Inson jamiyatdagi kishilar bilan muloqoti jarayonida ijtimoiy

munosabatlarga kirishadi va unda sekin asta individdan shaxsga aylana borish imkoniyati yuzaga keladi[10]. Ijtimoiylashuv sababli insonda yangidan-yangi shaxsiy xislatlar paydo bo'ladi, ya'ni o'zining xatti-harakatlari uchun javob berish, o'zini o'zi nazorat qilish, o'zi-o'zini tarbiyalash, ijtimoiy faollik, mustahkam e'tiqodga, o'z dunyoqarashiga egalik, mustaqil qarorlar qabul qilish va o'z fikrlarini erkin bayon etish shaxsga xos xususiyatdir. Inson qachon o'zining oila a'zolari oldidagi, millat oldidagi, Vatan oldidagi, jamiyat oldidagi va, qolaversa, umuminsoniyat oldidagi mas'uliyatini jiddiy his etsa, uni tom ma'nodagi haqiqiy shaxs hisoblash mumkin.

Shaxs mas'uliyatini shakllantiruvchi mazkur omillar o'zaro uyg'un bo'lgandagina ta'sirchanligi yuqori bo'ladi.

Mas'uliyat ijtimoiy xarakterga ega. Ijtimoiy mas'uliyat oilaviy, fuqarolik, jamiyat va shaxsiy xizmatlarni bajarayotganda vujudga keladi[11:15].

Yoshlarda mas'uliyat sifatlarini o'stirish ularda mustaqillik, shijoatlilik, dominantlilik, o'ziga ishonchlilikni shakllantirishga xizmat qiladi. Psixolog olim N.S.Safoev, "Inson hayot qonuniyatlarini bilish va ularni o'z faoliyatida qo'llashga qodir ekan, demak shu nuqtai nazardan uning xulq-atvorini ijtimoiy me'yorlar bilan boshqarish mumkin. Qolaversa, inson o'z qilmishlari uchun mas'uliyatni his qilishi lozim"[12:14] — deb ta'kidlaydi.

Yana bir psixolog olimaga Sagindikova "Mas'uliyat o'zi va boshqalar, jamoa oldidagi o'z xatti-harakatlari uchun mas'ullikni bo'yniga olib, shaxsning o'zini boshqarishi va xulq-atvorini shakllantiruvchi eng asosiy xarakter sifatidir"[13:13] – deb ta'riflab o'tadi.

"Mas'uliyat" – falsafiy kategoriya sifatida ijtimoiy voqelikda insonning anglanilgan xatti-harakatlarini ifodalaydi. Bu falsafiy kategoriya orqali insonlarning ijtimoiy-ma'naviy, moddiy-jismoniy, ruhiy-tabiiy mas'uliyat kabi xislatlari qamrab olinadi va tahlilga tortiladi. Ijtimoiy falsafada bu tushuncha shaxsning jamiyat oldidagi ma'naviy-axloqiy talablarni bajarishi nuqtai nazaridan olib qaraladi. Shaxs ma'naviy kamolotida mas'uliyat masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Mas'uliyatning ijtimoiy–ma'naviy funksiyasi turli zamon va makonga qarab o'zgacha mazmun kasb etib boradi. Bu bevosita shaxslararo, guruhlararo, davlat va jamiyatlara munosabatlar tarzida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, shaxs ma'naviy taraqqiyotining har bir bosqichida o'z ifodasini topgan mas'uliyat darajasi ham o'zgarib boradi va shaxs ma'naviy faoliyati, uning turfa xususiyatlari bilan bir butunlikda kechadi. Demak, ijtimoiy mas'uliyat inson ma'naviy hayotining mazmun- mohiyatini tashkil qiluvchi bosh omil hisoblanadi. Har bir shaxs o'zining vatan, xalq, jamiyat oldidagi fuqarolik burchi vijdon ishi ekanligini his qilmog'i lozim. Zero, o'z burchini, mas'uliyatini yaxshi his qilgan odamlarning xalq, yurt oldida obro'yi, qadr- qimmat, mavqeyi oshib, bunday shaxslarni barcha birday e'zozlaydi[14:12].

Mutafakkir olim Abdurauf Fitrat mas'uliyatni shaxsning "ma'naviy xatti – harakatlari majmui" sifatida talqin etadi[15:633]. Darhaqiqat, inson ma'naviy mavjudot ekan, uning xatti – harakatlarida ham ma'naviylik aks etishi tabiiy holdir. Shaxs qachon o'zining harakatlari oqibatini o'ylasa va buning uchun ma'naviy javobgarligini vijdonan his etsa, ana shunda mas'uliyat haqiqiy ma'naviy xatti- harakatlar majmuasiga aylanadi. Mas'uliyatda shaxsning o'ziga xos ma'naviy jihatlari namoyon bo'ladi. Masalan iymon-e'tiqodlilik, vijdoniylik, or-nomuslilik, irodalilik, ruhan poklik, samimiylik, g'ururlilik, insonparvarlik, vatanparvarlik. Demak, ma'naviy barkamol shaxsni shakllanishida mas'uliyatning o'rni beqiyos.

“Mas’uliyat” arab tilidan olingan bo‘lib, “javob bermoq”, “javobgar bo‘lmoq” degan ma’nolarni anglatadi. Mas’uliyat tushunchasi Yevropa ilmida ilk bora falsafiy tushuncha sifatida XIX asrning 2-yarmidan boshlab qo‘llanila boshlangan. “Mas’uliyat” tushunchasi birinchi marta falsafaga 1859-yilda Alfred Ben tomonidan kiritilgan[16:11].

Psixolog olim N.D.Sagindikova, “mas’uliyat o‘zi va boshqalar, jamoa oldidagi o‘z xatti – harakatlari uchun mas’ullikni bo‘yniga olib, shaxsning o‘zini o‘zi boshqarishi va xulq-atvorini shakllantiruvchi eng asosiy xarakter sifatidir”[17:12] -deya ta’rif beradi.

Faylasuf olim S.Mamashokirov o‘z tadqiqotlarida shaxsning ekologik[18] mas’uliyati jihatlariga alohida urg‘u berib o‘tgan.

Siyosatshunos olimlardan H.X.Jo‘raqobilova tadqiqotlarida shaxsning davlat siyosatini qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq fuqarolik mas’uliyati[19] ochib berilgan. Diniy nuqtai nazardan ham islomiy qadriyatlar vositasida insonlar xatti-harakatini tartibga solish, bunda shaxs va jamiyat munosabatlari xususida muayyan tadqiqotlar amalga oshirilgan[20].

Bu ishlarda islomiy qadriyatlar odamlarni to‘g‘ri yo‘lga solishda, halol va poklikni targ‘ib qilishda muhim ahamiyat kasb etganligi ta’kidlanadi.

Faylasuf olim Yu.Yakubov “Shaxs va jamiyat o‘zaro munosabatda bir-biri bilan bog‘liq tushunchalardir. Shaxs jamiyatda shakllanadi va rivojlanadi. Shaxsning o‘ziga xos sifatleri jamiyatda tutgan o‘rni va bajaradigan vazifalari bilan belgilanadi. U shaxs sifatida shakllanish uchun juda ko‘p murakkab bosqichlardan o‘tishi, zarur bilimlar, hayotiy tajribalarga ega bo‘lishi, o‘zi yashayotgan va mehnat qilayotgan jamoa muhit va muayyan jamiyatning talab va ehtiyojlarini o‘zida aks ettirishi muhim”[21:11] — deb ta’kidlaydi. Bunda shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tizimini ochib beriladi.

“Mas’uliyat” tushunchasiga ma’naviyatshunos olim M.Imomnazarov: “Mas’uliyat – shaxs ma’naviyatining muhim tarkibiy jihati, o‘zi anglab yetgan va to‘g‘ri deb bilgan Borliq haqiqatiga amalda sadoqat saqlash, har bir xatti – harakatining oqibatini o‘ylab qadam qo‘yish. Inson erkin irodasi bilan o‘zini dunyodagi barcha mavjudot uchun mas’ul deb bilsa va har bir qadamini qo‘yishda ana shu mas’uliyatni his qilib tursa ayni shu shaxs haqiqiy ma’naviyat sohibidir”[22:406] - deb ta’rif beradi. Olimning fikriga qo‘shilgan holda shuni ta’kidlab o‘tish joizki, shaxs va mas’uliyat tushunchalarini biz ayro holda tushunmaymiz. Chunonchi, shaxs mas’uliyati bu o‘zligini anglab yetishdir. Demak, o‘zligini anglab yetgan shaxsdagina o‘z hatti – harakati uchun javobgarlik hissi mavjud bo‘ladi. Eng muhimi bu javobgarlik insonning Alloh oldidagi javobgarlik hissini anglashdir. Mana shu javobgarlik natijasida shaxs mas’uliyati vujudga keladi. “Ushbu vajhdin, o‘zligini tanimoq Haq subhonahu va ma’rifatining kalididir. Chunonchi, o‘z zotingni tanisang Haq subhonahu va taoloning zoti vojbul vujudini taniysan”[23:67]. Demak, Allohni tanimoq va yaratgan oldidagi mas’uliyatini anglagan shaxs uning bandalari oldidagi mas’uliyatini ham anglab yetadi.

Komil inson yuksak axloq egasi bo‘lib, o‘zining yerdagi vazifasi halollik va rostgo‘ylikni qaror toptirishdan iboratligini fahmlar ekan. Yaxshilik va ezgulikka boshlaydigan qadriyatlarni anglash va joriy etish har bir inson uchun muhimdir. Zero bu darajaga yetishish uchun inson o‘zini anglab yetishi kerak. G‘azzoliyning fikricha, o‘zini anglamagan kishi hech narsani anglamay dunyodan o‘tadi.

**Farz** (arab. — majburiyat) diniy-huquqiy kategoriya bo‘lib, bevosita Qur’onda qayd etilgan, har bir musulmon qanday bo‘lmasin bajarishi majbur, shart bo‘lgan qat’iy talab, tartib-qoidalardir[24]. Sunnat esa Payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v. tomonidan ijtimoiy hayotga

qoida sifatida kiritilgan amallar sanaladi. Ammo, sunnat amallarini ham o'z vaqtida ado etib borish majburiyati va mas'uliyati mavjuddir. Demak, islom dini har bir insonni mas'uliyatga chaqiradi va tarbiyalaydi. "Kimning himmati-yu, muruvvati qanchalik ko'p bo'lsa, shunga yarasha odamlar uning qayg'usiga sherik bo'ladilar, hamdardlik bildiradilar. (Abdulqosim az-Zamaxshariy)"[25]. Ushbu fikrdan ko'rinib turibdiki har bir inson bir-biriga mas'uliyatli bo'lishligi lozimdir. Chunki, har birimiz bir-birimizga bog'liqdirmiz.

Islom ta'limotida shaxs mas'uliyati yetakchi hisoblanadi. Islomda har bir inson besh narsani himoya qilmog'i farz va majburiyat sanaladi. Bu iymonni, hayotni, aql va ma'rifatni, or-nomusni, mulkni himoya qilishdir. Islomda shaxsni yuksak mas'uliyatining muhim jihatlaridan biri sifatida vatanparvarlik hissining yuqoriligi alohida ahamiyat kasb etadi. Hadisi Sharifda "Vatanni sevmog' — iymondandir" deyilganida aynan shuni nazarda tutilgan. Vatanni sevish bu xalqni sevish demakdir.

Zamonaviy istilohlarda burch tushunchasi insonlarni, boshqalarga, jamiyatga va butun insoniyatga, o'z kasbiga (kasbiy burch), tabiatga, shuningdek kelajak avlodlarga nisbatan mas'uliyat darajasini oshirish bilan bog'liq hodisa sifatida ifodalanadi.

Burch va mas'uliyat bir-biridan o'zaro bog'liq hamda farqli tushunchalar hisoblanadi. Mas'uliyat burchdan ko'ra aniqroq tushunchadir: u nimaga va kimga mas'ul ekanligingizni aniq bilishni nazarda tutadi[26:210]. Majburiyat va mas'uliyat bir-birini to'ldiruvchi tushunchalar bo'lib, o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni ixtiyoriy bajarish tamoyilida ifodalanadi.

**Xulosa.** Mas'uliyat — bu o'z faoliyatining holatlaridan xabardor bo'lgan aqli raso shaxs tomonidan amalga oshiriladigan, majburlashdan tashqari erkin harakatdir. "Bu yerda ma'lum bir harakatning oqibatlari bilan shaxsning ko'rish va nazorat qilish qobiliyati bilan bog'liqlik yuzaga keladi.

Burch va mas'uliyat axloqiy ongning ikki kategoriyasi aynan insonning xatti-harakati uchun ma'naviy javobgarlikni belgilaydigan vijdon tushunchasida birlashadi. U ko'pincha insonning "ichki regulyator" vazifasini bajarib, ma'lum harakatlarni bajarishga va muayyan tarzda o'zini tutishga yordam beradi. Shunday qilib, burch va mas'uliyat muammosi har qanday davrda ham dolzarbdir. Inson qalbidagi axloqiy fazilatlarining namoyon bo'lishi har bir inson uchun tabiiy ehtiyojga aylanishi kerak.

#### Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси 2-жилд. – Тошкент.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти. 2000. – Б. 781.
2. Нерсеянц В.С. Философия права. Учебник для вузов – М.: "Норма", 2005 – С. 424.
3. Конфуцианский трактат «Чжун юн»: Переводы и исследования / сост. А.Е. Лукьянов; пер. Д. Конисси, В.Г. Бурова, А.Е. Лукьянова, В.Б. Югай. М.: Вост. лит., 2003. –С.247.
4. Гаджикурбанова П.А. Трансформация учения об обязанностях стоиков и Цицерона в сочинении Амвросия Медиоланского «Об обязанностях священнослужителей» (рус.) // Институт Философии Российской Академии Наук. – 2016.
5. Гусейнов А.А. Новая философская энциклопедия. В четырех томах. / Ин-т философии РАН. Научно-ред. совет: В.С. Степин, А.А. Гусейнов, Г.Ю. Семигин. – М.: – Т.1. А-Д. – Мысль, 2010. – С. 216.
6. Утченко С.Л. Марк Туллий Цицерон. О старости. О дружбе обязанностях. – Москва: Наука, 1993. – С. 159.
7. Нерсеянц В.С. Философия права. Учебник для вузов – М.: "Норма", 2005 – С. 424.

8. Буриев О., Раҳмонов Ф. Интерпретация в «Авесте» общественных отношений и система управления. – «Авеста» и идея национальной независимости: история Отечества, проблемы государственности и идеологии. – Карши: Насаф, 2002. – С.26.
9. Кант И. Ответ на вопрос: что такое просвещение // Кант И. Избранные сочинения: В 2 т. / Под ред. А.П. Клемешева, В.Н. Брюшинкина. Калининград: Изд-во РГУ им. И. Канта, 2005. Т. 2. С. 11.
10. Хуқуқий нуқтаи назардан ҳам “шахс” тушунчаси “Ўз ҳатти-ҳаракатлари ва билдирган фикр-мулоҳазалари учун тўла жавобгарликни ўз зиммасига оладиган ёш даври”га тўғри келади.
11. Эргашев И. С. Шахс маънавий камолотида эркинлик ва ижтимоий масъулият уйғунлиги. номз. Дисс. Автореферати. - Тошкент: 2011, -Б. 15.
12. Сафоев Н.С. Психологические особенности национального самосознания студенческой молодежи. Автореф. Дисс. ... док. псих. Наук. –Ташкент: 2005, -С. 14.
13. Сагиндикова Н.Д. Талабалар ўқув фаолиятида масъулиятнинг гендер хусусиятлари. (PhD)док. дисс. Автореферати. - Тошкент: 2017, -Б. 13.
14. Эргашев И. С. Шахс маънавий камолотида эркинлик ва ижтимоий масъулият уйғунлиги. номз. Дисс. Автореферати. - Тошкент: 2011, -Б. 12.
15. Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. -Тошкент: 2010, -Б. 633.
16. Сагиндикова Н.Д. Талабалар ўқув фаолиятида масъулиятнинг гендер хусусиятлари. (PhD)док. дисс. Автореферати. - Тошкент: 2017, -Б. 11.
17. Сагиндикова Н.Д. Талабалар ўқув фаолиятида масъулиятнинг гендер хусусиятлари. (PhD)док. дисс. Автореферати. - Тошкент: 2017, -Б. 12.
18. Мамашокиров С. Экологик фаоллик ва масъулиятни шакллантиришда ижтимоий-сиёсий омилларнинг роли. Докт. Дисс. –Тошкент: 1997.
19. Жўрақобилова Ҳ.Х. Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини қуришда маҳаллий бошқарув ходимларининг масъулиятини ошириш омиллари. Номз. Дисс. Автореферати. –Тошкент: 2009.
20. Якубов Ю.М. Ислом таълимотида шахс ва жамият муносабатлари масаласи. Номз. Дисс. Автореферати. –Тошкент: 2008.
21. Якубов Ю.М. Ислом таълимотида шахс ва жамият муносабатлари масаласи. Номз. Дисс. Автореферати. –Тошкент: 2008, -Б. 11.
22. М.Имомназаров.Миллий маънавиятимиз асослари. Тошкент-2006. –Б. 406.
23. Абу Ҳомид Ғаззолий. Кимийё саодат. -Тошкент.: Адолат, 2005. –Б 67.
24. Диншунослик асослари. Ўқув қўлланма. “Ўзбекистон”. - Тошкент. 1995, йил.
25. Турсун А. Шарқ донишмандлари хикматлари. “Шарқ”. - Т.: 2006, йил.
26. Артемов, В. М. Нравственность и право: этико-философское осмысление и практика сближения: // Вопросы философии. – 2018. – Н 3. – С. 207-210.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 12 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari**” elektron jurnali  
2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli  
guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.  
**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**  
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Bog‘lanish uchun telefonlar:**  
(99) 602-09-84 (telegram).